



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

## ALISHER NAVOIY IJODIDA MONIY OBRAZI

### THE FIGURE OF MANI IN ALISHER NAVOI'S CREATIVE HERITAGE

**Normurodova Nargiza Alijon qizi,**

Guliston davlat universiteti,

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: [nargizanormurodova1982@gmail.com](mailto:nargizanormurodova1982@gmail.com)

ORCID: 0009-0005-8399-3101

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./SGDX2311](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./SGDX2311)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola buyuk mutafakkir va shoir, davlat arbobi, olim, o'zbek adabiy tilining asoschisi bo'lgan Mir Alisher Navoiyning qalamiga mansub bo'lgan “Xamsa” tarkibiga kiruvchi “Farhod va Shirin” hamda “Sab'ayi sayyor” asarlaridagi Moniy obrazining talqiniga bag'ishlanadi. Ikki buyuk dostonida betakror ilm, yuksak ma'naviy olam, ilm-u adab sohibi sifatida tasvirlangan naqqosh va rassom Moniy obrazining talqin usullari, timsol sifatida tutgan o'rni, badiiy roli xususida so'z yuritiladi. Moniy shaxsining asl tarixiy genezisi, hayoti, diniy-falsafiy qarashlari, qadim turkiy xalqlar adabiyotida qoldirgan ma'naviy merosi haqida fikr yuritiladi. Alisher Navoiy tomonidan Moniy obrazining go'zallik va san'at yaratuvchisi sifatida muhabbat bilan tasvirlanishi haqida misollar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Navoiy, Moniy, komillik, naqqoshlik san'ati, qadimgi turkiy manbalar, san'at, moniylik dini, Farhod, Shirin, Bahrom, Dilorom.*

**Annotatsion:** *This article is devoted to the interpretation of the image of Moni in the works "Farhod and Shirin" and "Sabayi Sayyor", which are part of the "Khamsa" written by the great thinker and poet, statesman, scientist, founder of the Uzbek literary language Mir Alisher Navoi. The two great epics discuss the methods of interpretation of the image of the painter and artist Moni, who is depicted in them as the owner of unique knowledge, a high spiritual world, and knowledge and literature, his role as a symbol, and his artistic role. The true historical genesis of the personality of Moni, his life, religious and philosophical views, and the spiritual legacy he left in the literature of the ancient Turkic peoples are discussed. Examples are given of Alisher Navoi's loving depiction of the image of Moni as a creator of beauty and art.*

**Keywords:** *Navoi, Mani, perfection, the art of painting, ancient Turkic sources, art, Monism, Farhod, Shirin, Bahrom, Dilorom.*



O'zbek xalqi o'zining qadimiy va betakror madaniyatga egaligi bilan butun dunyoni lol qoldirgan. O'zbek madaniyatining dunyoga tanilishida, albatta, adabiyotning o'rni beqiyosdir. Hozirgi o'zbek adabiyoti shu davrga kelgunicha, albatta, ming-minglab tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan. Biz XXI asr avlodlarimiz, ammo bizning ota-bobolarimiz o'tgan asrlarda yashab biz avlodlar uchun ulkan ma'naviy merosni qoldirib ketgan. Eng qadimiy yodgorliklardan tortib hozirgi kungacha bo'lgan badiiy manbalarning barchasi, albatta, o'zbek adabiyoti tarixi uchun zarurdir. Ayniqsa, o'zbek xalqi badiiy adabiyoti shakllanishiga tamal toshini qo'ygan eng qadimgi adabiy yodgorliklar Markaziy Osiyo hududida qadim zamonlardan beri istiqomat qilib kelayotgan o'zbek, tojik, turkman va boshqa ellarning ham adabiy yodgorligi hisoblanadi. Biz tarixdan yaxshi bilamizki, VIII asrlarda Markaziy Osiyo hududining Arab Halifaligi tomonidan istilo qilinishi natijasida bu yerga islom dini kirib keldi. Ammo ungacha ham turkiy xalqlarning o'ziga xos madaniyati, e'tiqod etuvchi dini mavjud edi. Islom dini kirib kelgunga qadar ham Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotining shakllanishida ayrim dinlarning ham ta'siri bo'lgan. O'zbek adabiyoti tarixini o'rgangan qadimshunos olim Nasimxon Rahmonov bu haqida shunday deydi: “Islomgacha bo'lgan davrdagi adabiyot diniy oqimlarsiz rivojlanishi mumkin emas edi. Qolaversa, islomdan oldingi adabiy yodgorliklarga tom ma'nodagi adabiyot sifatida qaralmadi, bu davrdagi adabiy yodgorliklarning o'ziga xos mezonlari borligi va ana shu mezonlar davrlashtirishning asosi bo'lishi kerakligi bugungi kunda ma'lum bo'ldi. Islomgacha bo'lgan diniy oqimlar bir hududda faoliyat ko'rsataverdi. Markaziy Osiyoda birin-ketin zardushtiylik, shomonlik, moniylik, buddaviylik oqimlari o'ziga xos yozma adabiyotni yuzaga keltirdi. Buddaviylik oqimi “Oltin yorug”ni, “Maytri smit”ni va buddaviylik she'rlaini, moniylik oqimi “Xuastuanif”ni (Moniylarning tavbanomasi)ni va moniylik she'rlarini yuzaga keltirdi.” [Rahmonov N. 2017: 5] Nasimxon Rahmonov islomgacha bo'lgan turkiy adabiyotni bir necha davrga ajratadi, ya'ni buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyot, moniylik oqimidagi turkiy adabiyot, shomonlik oqimidagi turkiy adabiyotlarga bo'lib davrlashtiradi. Mana shu oqimlar ta'sirida paydo bo'lgan ayrim mif, afsona qahramonlarini yoki yaxshilik, yomonlik xudolari kabi timsollarni hozirgi kungacha ham yozma, o'g'zaki adabiyotlarda uchratamiz, albatta. Masalan ertak, doston, she'rlarda afsonaviy Jamshid obrazi, yaxshilik xudosi bo'lgan Axuramazda, yovuzlik ruhi bo'lgan axramanni dev sifatida bot-bot uchratamiz. Hozirgi o'zbek adabiyotining turli janrlarida ham tarixiy obrazlar sifatida Tunyuquq, Bilga xoqon, Kultegin kabilarni uchratamiz. Demak, bundan bilishimiz mumkinki, qadim turkiy millatning adabiyoti shakllanishiga asos bo'lgan bu diniy oqimlarning asosi bo'lgan ezgulik haqidagi g'oyalar ayrim qahramonlar orqali



adabiyotda hamma zamonlarda ham o'z aksini topib kelgan. Ana shunday qadim turkiy adabiyot rivojiga hissa qo'shgan moniylik diniy oqimining asoschisi bo'lgan Moniy shaxsining aynan timsoli bo'lmas-da, uning nomini, nomi orqali ayrim ezgulik g'oyalarining ta'sirini ham yuqoridagi obrazlar kabi adabiyotlarda uchratishimiz mumkin. Biz buni buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning ikki dostoni: “Farhod va Shirin” hamda “Sab'ayi sayyor”da uchratamiz.

Dunyo adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan Navoiy bobomiz ham bizdan necha asrlar oldin XV asrlarda yashab ijod etib, o'zidan juda katta ma'naviy boylikni qoldirib ketgan. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy dahosining dunyo tamaddunida tutgan o'rni, mavqei juda yuksakdir. O'zining abadiyatga molik asarlari, qimmatbaho durdona merosi bilan Sharq mumtoz adabiyotida Farhod, Shirin, Layli, Majnun kabi obrazlarni yaratib, ular timsolida komil inson g'oyasini ilgari surgan Navoiyning asarlari bugungi kun uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning o'lmas asarlari dunyo adabiyotshunoslari tomonidan ham chuqur o'rganilib kelinmoqda. XIX-XX asrlar davomida Navoiyning biografiyasi, ilmiy qarashlari, xamsanavislik an'analari, yaratgan asarlarining dunyo hamda Sharq mumtoz adabiyotidagi o'rni yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar olib borilgan. Aynan bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ham jahon adabiyotshunosligida Navoiy asarlarini har jihatdan ilmiy tadqiq etish, sharqona badiiy o'lchovlar asosida o'rganish muhimligi ko'rinmoqda.

Biz bilamizki, Navoiy “Xamsa” asarini juda qisqa muddatda yozib tugatadi. Shunday bo'lishiga qaramay doston butun dunyoni o'ziga rom etgan badiiy yetuk adabiy meros sifatida o'rganilib kelinadi. Asarda shoir turli mavzularga murojaat etadi, yuzlab obrazlarni keltiradi. Dostonlarda turli xil tarixiy shaxslar obrazlarini, payg'ambarlar, an'anaviy, yana mifologik obrazlarni uchratish mumkin. Navoiy ijodi bo'yicha olib borilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlarda “Xamsa” dostonidagi asosiy qahramonlardan tashqari ko'plab obrazlar tahlilga olingan. Ammo ikki yirik dostonda qalamga olingan Moniy obrazi ozroq chetda qolgandek, nazarimizda. Biz bilamizki, o'tgan zamonlardagi har bir ma'naviy, moddiy boylik keyingi avlodda o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Islomgacha bo'lgan davrdagi badiiy adabiyot timsollari islom dini kirib kelgach ham shoirlar ijodida o'z aksini davom ettiravergan. Masalan, Moniy nomini olaylik. Biz yuqorida aytmoqchi bo'lganimizdek Navoiy “Xamsa”sida Moniy obrazini epizodik obraz sifatida qo'llagan bo'lsa ham, lekin uning asl g'oyaviy maqsadi bor. Xo'sh, o'zi aslida Navoiy e'tiboriga tushib, asarlarida nomi tilga olingan Moniy tarixda yashaganmi, yo'qmi degan haqli savol tu'giladi, albatta. Ha, Moniy o'zi aslida tarixda miloddan avvalgi III asrlarda yashab o'tgan Moniylik oqimining asoschisi bo'lgan Moniy ibn Fatakdir. U haqida ko'plab ma'lumotlarni qadimshunos



olim Nasimxon Rahmonovning “Ruhiyatdagi nur murodi” hamda “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” kitoblarida uchratishimiz mumkin. Yana tarixiy manbalarda keltirilishicha Navoiyning shogirdi bo‘lgan Sharq Rafaeli deya tanilgan Kamoliddin Behzodga nisbatan ham Moniy ikkinchi nomi qo‘llangan ekan. Moniy shaxsi haqida qadimshunos olim N.Rahmonov shunday ma’lumotlarni keltirgan:”Moniylik oqimining asoschisi – Moniy ibn Fatakdir. Moniy yoshligida ko‘p sayohat qildi: O‘rta Osiyoda, Hindistonda uzoq vaqt yashab, bu o‘lkalardagi mahalliy dinlar, jumladan, braxmanizm, buddaviylik va nasroniylik oqimlarini chuqur o‘rgandi. Ayniqsa. O‘rta Osiyo va Eron hududida mustahkam ildiz otgan zardushtiylik Moniyning e‘tiborini ko‘p jalb qildi. Shu sababdan o‘zi yaratishni maqsad qilib qo‘ygan ta‘limot uchun zardushtiylikka tayandi” [Rahmonov N. 2017: 5]. Moniyning ta‘limoti uning – Barhayot Injil, Shopur ibn Ardasheriga bag‘ishlab yozgan – Shopuroqon asarlarida o‘z ta‘limotini ilgari suradi. Moniylik ta‘limoti, uning asl maqsadi haqida esa quyidagi fikrlarni keltirishimiz mumkin: ”Moniylikda ruhiy olam bosh o‘ringa qo‘yilgani bejiz emas. Moddiy olamda tana sevgisi bilan yashash, ya’ni hayotning mazmunini tanaga lazzat bag‘ishlaydigan ishlardan iborat deb tushunish, insonlarning o‘z g‘am-tashvishlariga o‘ralashib qolishi ruhiy olamdan uzoqlashtiruvchi sabablardir.Tana sevgisi moddiy olamdagi boyliklarga ruju qo‘yishga olib keladi va ruhiy olamdagi boylik –nurdan uzoqlashishga sabab bo‘ladi, xudo unutiladi.Moniy jamoasi a’zolari faqat qilgan gunohlari uchun tavba qilib,nazr ataydilar, g‘oya shundan iborat deb tushunish bir yoqlamadir. Balki bu g‘oya keng qamrovli bo‘lib, uning ostida moniylikdagi nur timsoli bilan ezgulik olamini uyg‘unlashtirish yotadi. Moddiy olam yovuzlik va zulmat bilan uyg‘unlashtiriladi. Soddaroq qilib aytsak, ruhiy olamda ezgulik, moddiy olamda esa yovuzlik yashaydi. Bunday ziddiyatning paydo bo‘lishi va bosh o‘ringa chiqarilishidan maqsad shundan iborat ediki, odamzodning ruhiyatidagi nurni -ezgulikni moddiy olamdagi zulmatdan qutqarish lozim. Moniy esa bu yo‘lda najotkoridir”. [Rahmonov N. 2002: 48]

Darhaqiqat, inson ruhiy olamining to‘yinishi bu haqiqiy boylikdir. Bizningcha, Navoiy bobomiz islomgacha yaratilgan badiiy adabiyot durdonalarinig ezgu g‘oyalariga bee‘tibor bo‘lmagan. Zero, har qanday badiiy adabiyot zamirida inson ma’naviy kamolotining g‘alabasi yotadi, moddiy yutug‘i emas. Navoiy dostonlarining har birida, albatta, komillikka intilgan bosh obrazlar mavjud, Farhod, Majnun kabi. Anglashimizcha, Navoiy “Sab‘ayi sayyor” dostonida ko‘proq tilga olgani Moniyini, garchi u bosh obraz bo‘lmasa-da, aysh-ishratga berilgan Bahromning yashash e’tiqodiga qarama-qarshi qo‘yadi. Moniy har ikki dostonida ham ezgulikni shior qilgan, hunarmand inson sifatida gavdalanadi. Qadimshunos olim N. Rahmonov aytganidek “Moniy-najotkor”, u obraz sifatida dostonida muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” hamda “Sab’ayi sayyor” dostonlarining har ikkisida ham Moniyni ham “ustodi mohir”, ham “funun aro mohir” naqqosh, musavvir deya ta’riflaydi:

Kelib ul naqsh kilki soyasidin  
Ki kelmay yuz qalam riroyasidin.  
Kishiga tushda ta’lim etsa zohir,  
Qo’pib ul uyqudin ustodi mohir. [Navoiy, 1992: 89]

Yoki mana ta’rifga e’tibor qaratamiz:

Bularni qoyki, har ustodi mohir  
Ki, qildi san’atin ul evda zohir. [Navoiy, 1992: 97]

Dostondagi har bir qahramon ramziy ma’no tashiydi. Shirin Farhod uchun jismda jon kabi asraladigan nihoyatda go’zal, o’ta nafis va nozik iymon ko’zgasidir. Shunday ko’zguki, unda Yaratganning jamoli jilva qiladi. Farhodning Arman yurti (bu ham ramz) – Shirinning huzuriga bo’lgan yo’ldagi tortgan azoblari bir insonning komillik yo’lida chekadigan mashaqqatlarining timsollari edi. Farhod yoshi ulg’aygan sari qayg’uli va xastadil bo’lib boradi. Podshoh Farhodning ko’nglini ochish, tushkun kayfiyatini ko’tarish uchun yilning to’rt fasliga moslab to’rt qasr qurdiradi. Shu asnoda Farhod Qorandan tosh yo’nish, Boniydan me’morlik, **Moniydan naqqoshlik** sirlarini o’rganadi. Moniy naqqosh sifatida hashamatli qasrning har bir uyiga naqshlar va suratlar chizsa, uning yonida hozir turgan Farhod madadkorlik qilar, suratlariga rang berar, zarur bo’lganda tosh kesish va naqqoshlik ishlarini bajarardi. Ana shu ishlar davomida Farhod mohir ustoz bo’lib yetishadi. Lekin u egallagan bilimlar, o’rgangan hunarlar zohiriy (dunyoviy) bilimlar bo’lib, ilohiy sir-u asrorni ochishga kifoya qilmaydi. Shu bois u qancha ilm, hunar o’rganmasin, qalbida kechayotgan iztiroblarni oxirigacha ko’tara olmaydi, chunki uning iztiroblari dunyodagi muammolardan ustun edi. Tasavvufga ko’ra ko’ngilni poklash ham bir ilmdir. Ilm esa ustozlardan o’rganiladi. Farhodning ustozlaridan kasb o’rganishini yodga olinsa, ular shunchaki hunarmand ustalar obrazi emasdi. Boniy – ko’ngilga ishq binosini qurgan va qurishni o’rgatgan piri komil. **Moniy – Ollah ishqini qalbga naqshlash sirlarini anglatgan ustoz.** Qoran – ko’ngildagi toshdan ham qattiq nafsoniy istaklarni parchalash ilmini bildirgan murshid. Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida Moniy obrazini ham boshqa obrazlar kabi ramziy ma’noda qo’llaydi. Moniy shunchaki ustoz, shunchaki musavvir emas, balki podshoh o’g’liga bor ilmini o’rgatgan uni ham, ya’ni Farhodni ham usta darajasiga yetkaza olgan haqiqiy usta naqqosh sifatida gavdalanadi. Moniy ustoz sifatida o’zidagi bor ilmini, ya’ni yaratuvchiga, Ollohga bo’lgan muhabbatini Farhod qalbiga ham go’zal naqshlar kabi chizib qoldiradi. Keyinchalik Farhod Moniy kabi ustozlaridan o’rgangan

hunarlarini Shirin uchun toshdan qasr bunyod etganda ham foydalanadi. Qasr devorlariga Shirin va o'zining tasvirini tushiradi. Ko'rishimiz mumkinki, Moniy dostonida o'z maqsadiga yetadi, ya'ni shogirdi Farhodning qalbini Ollohga bo'lgan sevgi bilan to'ldiradi. Bir so'z bilan aytganda, Farhod ustozlarining o'rgatgan ilmiga amal qilib, insoniy o'zligini yo'qotmay, poklanish yo'lida davom etadi. Poklanishga erishgan komil inson ayni paytda yuksak axloq va odob timsoliga aylanadi. Shu ma'noda Farhod o'zbek adabiyotida mukammal yaratilgan komil inson obrazidir. Ana shu komillikka sababchilar esa ustozlari Qoran, Boniy va **Moniy**lardir.

Alisher Navoiyning yana bir dostoni bo'lgan “Sab'ayi sayyor”da ham Moniy obrazi qo'llanilgan. Xuddi “Farhod va Shirin”dek bu asarda ham Moniy mohir musavvir tarzida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. “Sab'ayi sayyor”, ya'ni “Yetti sayyora” dab nomlangan ushbu ishqiy-sarguzasht dostonida Navoiy bosh obraz sifatida Shoh Bahromni oladi. Navoiy doston voqealarini ramziy ma'noda haftaning yetti kunida, yetti tUSDagi qasrda, yetti hikoya aytilishi bilan ijodiy yondashadi. Navoiy bu dostonida boshqa xamsanavislar bo'lgan Nizomiy, Dehlaviylardan farqli o'laroq yangicha talqin qiladi. Dostonga Moniy va Chin savdogari obrazlarini kiritadi. Bu obrazlarning kiritilishi, albatta, dostonning g'oyaviy-badiiy qimmatini oshirishga katta yordam berdi. Ayniqsa, Moniy obrazining kiritilishi, uning insoniy sifatleri, naqqoshlik kasbining kuchli ustasi bo'lib namoyon bo'lishi u bilan bog'liq vaziyatlar ayniqsa, qiziqarli bo'lgan.

Bahrom ov paytida bir kishini uchratadi va unga hurmat ehtirom ko'rsatib yoniga chaqiradi, bu Moniy edi. Moniy suhbat chog'ida bir chiniy go'zal haqida so'z ochadi va uning suratini podshohga ko'rsatadi. Diloromning suratini ko'rgan Bahrom unga oshiqi beqaror bo'lib qoladi. Dostondagi barcha voqealar rivoji mana shu voqeadan boshalanadi. Epizodik obrazlar bo'lgan Moniy va savdogar obrazlarining faoliyati hikoyadagi voqealar rivoji uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Savdogarning munosabatida biz ziddiyatlarni ko'ramiz, ya'ni bir tarafdan Diloromga xuddi otadek mehribon, ikkinchi tomondan esa uni kanizak sifatida sotib yuboradi. Bu holat, albatta, savdogar fe'l-atvoridagi kamchilik sifatida tasvirlangan. Navoiy Moniy obrazi orqali esa chin ma'nodagi insoniy fazilatlariga ega, shoh ehtiromiga sabab bo'lgan komil shaxsni namoyon etadi. Bularni doston matni orqali ko'rib chiqamiz.

Moniy shoh Bahrom bilan bo'lgan birinchi uchrashuvda shunday o'zini tanishtiradi:

Sajdai shukr aylabon toza,  
Deb duo beqiyosu andoza.  
Yer o'pub, o'lturub adab birla,  
Qildi og'oz so'z tarab birla

Kim, shah ikki hadis qildi savol,  
Bir bu erdiki:”Ayt o‘zungdin hol”.  
Mustami‘ bo‘lsa arz etay oni,  
Meni derlar jahon eli Moniy.  
Ko‘p bilik birla xotirim ma‘mur,  
Lek tasvir ila bo‘lub mashhur”. [Navoiy, 1992: 87]

Ya‘ni, Moniy avval shukr sajdasi ado qiladi Ollohga tengsiz va mislsiz duo qiladi, hurmat belgisi sifatida yer o‘pib, odob bilan o‘tiradi, quvonch bilan gap boshlab o‘zini Moniy ekanligini, butun dunyo shunday nom bilan atashini aytadi. Moniyning bu gaplaridan bilishimiz mumkinki, uni butun dunyo biladi, u katta bilim egasi, ko‘pni ko‘rgan inson, shu bilimlar uning qalbidagi boyligi, lekin u bilimidan ham ko‘ra musavvirliги bilan xallqa taniqli ekanini aytadi. Moniy podshoh bilan suhbat qurarkan Diloromning surati haqida so‘zlab shunday deydi:

Rang hayvon suvig‘a zam qildim,  
Ul pari suratin raqam qildim.  
Gar beaynih ul o‘lmasa bori,  
Shak emaskim erur namudori,  
Deb chiqordi harir chini soz  
Kim, yuzinda raqam edi bu tiroz.  
Ko‘zi birla aritti gardin aning,  
Qo‘pti filhol ochib, navardin aning. [Navoiy, 1992: 91]

Ya‘ni Moniy deydi: “Men ranglarni bo‘yoqlar bilan aralashtirib, o‘sha pari kabi go‘zal siymoning suratini chizdim. Bu pari kabi go‘zal tirik bo‘lmasa ham, lekin bu surat uning haqiqiy go‘zalligini namoyon etgan”. Moniy podshohga parining nozik ipak matoga chizilgan suratini ko‘rsatadi. Moniy ko‘zlari bilan, ya‘ni nigohi bilan uning yuzidagi changni artgan oniyoq, bu go‘zallik nuri butun atrofga sochilib, hamma yoqni yorishtirib yuboradi. Shoh Bahrom suratni ko‘rishi bilan Diloromga oshiq bo‘lib qoladi. Shu o‘rinda yana Moniy shohning holiga achinadi:

Moniy oshufta shoh holatidin,  
Mutahayyir bo‘lub malolatidin.  
Har zamon o‘zga nukta soz aylab,  
Yana bir naqshni tiroz aylab.  
Berib afsonalar adosida tul,  
Shoh ko‘nglin qilay debon mashg‘ul.  
Yordin o‘zga har ne deb Moniy,  
Eshitib, lek anglamay oni. [Navoiy, 1992: 96]

Moniy shoh Bahromning holini ko'rib hayratlanadi, uning qayg'uga botganini ko'rib uni ovutmoq uchun yangi-yangi naqshlar chizadi, har turli afsonalar to'qib, uning ko'nglidan ishq dardini aritmoq istaydi, shohning ko'nglini shod etmoq uchun mashg'ul bo'ladi. Ammo ishq dardidan beorom shoh hech narsani tushunmaydi. Nihoyat uning dardiga davo topishib, Chin mamlakatining bir yillik xirojini to'lab, qizni saroyga keltiradi. Orada Bahrom kayf-safoning orqasidan Diloromidan ayriladi, yana g'amga botadi. Shoh a'yonlari kelishib Bahromni tuzatish uchun qasr qurishga ahd qilishadi. Bu yetti qasr yetti shohning mamlakatiga olib boradigan yo'l ustida quriladi. Rassom Moniy qasrning har birini alohida bir rang bilan bezaydi.

Borcha Moniy qildilar hozir,  
Dedilar: "Ki-Ey funun aro mohir.  
Chun sen erding burun ul ish sababi  
Kim, bo'lub erdi shohning tarabi.  
Sihhatig'a yana sabab bo'lg'il.  
Tab'ig'a boisi tarab bo'lg'il.  
Qasrlar ziynatig'a ohang et,  
Bu yeti qasrni yetirang et.  
Naqshini ulcha sen bilursen, qil,  
Neki ko'nglung tilar qilursen, qil. [Navoiy, 1992: 143-144]

Bahrom ularni tomosha qilar ekan, kasali tuzala boshlaydi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, Navoiy epizodik obraz sifatida kiritgan Moniy obrazi aslida dostonda juda katta mavqega ega. Moniy insoniy fazilatlar egasi, u podshohga Diloromni topishda yordam beradi, shoh g'amga botganda uni ovutadi, qasrni esa jannatiy misol tarzda turli naqshlar bilan bezaydi. Demak, Navoiy Moniy obrazi orqali qalbi ham, hunari ham go'zal insonni gavdalantiradi. U shu hunari orqali insonlar qalbiga orom baxsh etadi, ramziy ma'noda esa inson qalbidan dunyoviy g'amlarni ketkazib, Ollohga bo'lgan sevgini qalblarga naqsh etadi. Buyuk shoirning asl maqsadi ham shu edi aslida, dunyoviy sevgini unutish, qalbg'a esa Olloh muhabbatini jo etish. Buyuk Naqshbandiy bobomiz aytganideh "Dast ba kori, dil ba yor", ya'ni "Qo'ling mehnatda bo'lsin, qalbing esa Ollohda" deyiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har ikki dostonda ham buyuk Navoiyning muhabbatiga sabab bo'lib, bosh timsollar qatori mehr bilan qalamga olingan Moniy obrazi Ollohga bo'lgan muhabbati kuchli, ilm-u adabda, so'zlash odobi bilan, chizgan naqsh-u tasvirlari bilan ko'ngillarni zabt eta oladigan komil insondir. "Farhod va Shirin" dostonida Farhodga ustozlik qilib, uni musavvirlikka o'rgatgan, "Sab'ayi sayyor" da esa shoh Bahromning ko'nglini ovlab, qalbiga ishq olovini solgan, so'ngra unga ham o'zi davo topgan, tasviriy san'atning mohir ustози sifatida butun bir boshli

Shoh Bahromning qasrini bezagan, bu orqali esa inson zotining bu dunyoda faqat moddiy olam, vujud nafsi uchungina yashashi xato ekanligini, haqiqiy kamolotga erishmoqni istovchilar birinchi galda o'z ruhiy dunyosini go'zallashtirishi, ruhini tarbiyalashi eng muhim omil ekanligini anglatuvchi obrazdir. Yana shuni alohida ta'kidlab aytish joizki, Navoiy bu dostonidagi obrazlar orqali uch timsolni gavdalantirmoqchi bo'lgan. Birinchisi bu haqiqiy Moniy, ya'ni moniylik oqimining yo'l boshchisi Moniy ibn Fatakni – Moniy ikkinchi, ya'ni rassom Kamoliddin Behzodni – uchinchi esa dostonlardagi Moniy obrazlaridir. Buyuk mutafakkir, shoirlar sultoni Navoiy mana shu uchlikni birlashtirgan holda o'zining ijodiy niyatini amalga oshirgan desak adashmaymiz.

#### Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. – T.: Fan, 1992, 8-tom.
2. Alisher Navoiy. Xamsa: Farhod va Shirin. TAT. 10 jildlik – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011. 6-jild.
3. Alisher Navoiy. Sab'ayi sayyor. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. – T.: Fan, 1992, 10-tom.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin (nasriy bayoni bilan). – T.: Adabiyot va san'at, 1989.
5. Alibek Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati. – T.: Adabiyot va san'at, 1979.
6. Dilnavoz Yusupova. Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi. – T.: Mumtoz so'z, 2011.
7. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr – O'zbekiston NMIU, 2009.
8. Nasimxon Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Sano-standart. 2017.
9. Nasimxon Rahmonov. Ruhiyatdagi nur murodi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002.
10. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddum, 2019.
11. Epic, M.M.S.S. “Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38. (2020).
12. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
13. Mamatqulov M. Sayyadi–ghazal writer. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 46-50.
14. Mamatqulov M. Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonida irsol ul-masal san'ati. Filologik ta'limni takomillashtirish muammolari, 176. 2020.



15. Mamatkulov, M. R. “The art of hyperbole in the epic nishati husn and dil”. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2 (9), 246-252.
16. Faizullayeva, O. H. Artistic Conditionality and Poetic Function of Signs in Lyrical Series. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 20-29. 2022
17. Kholbekovna, F. O. The issue of artistic idea in poetry. European Scholar Journal, 2 (4), 233-236. 2021
18. Mamatkulov, M., Fayzullayeva, O. Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. Modern Science and Research, 3(1), 1-7. 2024
19. Jurakulov S. Expression of mystical images in uzbek storyworking. Eurasian Journal of Technology and Innovation, 2 (1-1), 40-44. 2024.